


**Toshkent viloyatida
o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**
2025- yil yanvar-iyun oylari uchun (dastlabki ma'lumotlar)

1. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yillar bo'yicha o'zgarish dinamikasi.
2. Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal ish haqi.
3. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi.
4. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha dinamikasi.
5. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar.

1. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yillar bo'yicha o'zgarishi dinamikasi

Toshkent viloyatida 2025- yil yanvar-iyun oylarida o'rtacha oylik ish haqi **5 674,4** ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **15,3** % ga o'sgan.

Yillar kesimda o'rtacha oylik ish haqi,
(yanvar-iyun, ming so'm)



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(yillik\)](#)

[O'rtacha hisoblangan oylik ish haqi \(choraklik\)](#)

[O'rtacha hisoblangan oylik ish haqi \(yillik\)](#)

2. Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal ish haqi miqdori

Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar 2025- yilning yanvar-iyun oylari uchun keltirilgan bo'lib, 2024- yilning mos davri bilan taqqoslangan.

	Ming so'm	O'sish sur'ati, % da
Viloyat bo'yicha:	5674,4	115,3
<i>shaharlar:</i>		
Nurafshon	7407,6	118,0
Olmalik	8466,7	116,0
Angren	5282,8	121,4
Bekobod	5275,1	100,8
Ohangaron	5536,8	107,5
Chirchiq	5526,6	114,7
Yangiyo'l	4232,7	118,2
<i>tumanlar:</i>		
Oqqo'rg'on	3383,0	103,4
Ohangaron	5840,1	113,4
Bekobod	3282,5	115,9
Bo'stonliq	4994,4	116,4
Bo'ka	3365,9	119,1
Quyi Chirchiq	4006,2	118,8
Zangiota	4648,1	120,9
Yuqori Chirchiq	4009,2	109,8
Qibray	7298,9	118,3
Parkent	3554,3	113,5
Piskent	4099,4	131,3
O'rta Chirchiq	5012,8	115,5
Chinoz	3667,8	115,5
Yangiyo'l	5150,3	121,5
Toshkent	4497,5	115,7

Hududlar kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining eng yuqori o'sishi Piskent tumanida kuzatilib **131,3 %** (*4 099,4 ming so'm*)ni tashkil qildi.

Shuningdek, bu ko'rsatkich Yangiyo'l tumanida **5 150,3** ming so'm (*o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 121,5 %*), Angren shahri **5 282,8** ming so'm (*121,4 %*), Zangiota tumanida **4 648,1** ming so'm (*120,9 %*), Bo'ka tumanida **3 365,9** ming so'm (*119,1 %*) va Quyi Chirchiq tumanida **4 006,2** ming so'mni (*118,8 %*) tashkil etdi.

O'z o'rnida, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi Ohangaron shahrida **5 536,8** ming so'm (*107,5 %*), Oqqo'rg'on tumanida **3 383,0** ming so'm (*103,4 %*), Bekobod shahrida **5 275,1** ming so'mni (*100,8 %*) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)



3. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal ish haqi miqdori 2025- yilning yanvar-iyun oylariga oid bo'lib, 2024- yilning mos davriga nisbatan taqqoslangan. Bu taqqoslash orqali sohalar kesimida farqlar va o'zgarishlar tahlil qilindi.

Iqtisodiy faoliyat turi nomi	Ming so'm	O'sish sur'ati, % da
Sanoat	6910,5	113,7
Qurilish	7860,6	103,1
Savdo	5538,6	141,8
Tashish va saqlash	5140,5	110,4
Yashash va ovqatlanish	2155,7	111,7
Axborot va aloqa	14427,7	198,1
Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati	12371,0	111,2
Ta'lim	4119,1	119,5
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	3558,7	114,1
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	7147,3	119,4
O'rtacha	5674,4	115,3

O'rtacha oylik nominal ish haqi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tahlil qilinganida eng yuqori o'sish sur'atlari Axborot va aloqa sohasida qayd etilganligi, xususan, bu sohada 2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **198,1** % ni tashkil qilgani, ish haqi miqdori esa **14 427,7** ming so'mga yetganligi kuzatildi.

Shuningdek, savdo sohasida ham sezilarli o'sish sur'ati kuzatilib, ish haqi miqdori **5 538,6** ming so'mni (*o'sish 41,8* %), ta'lim sohasida – **4 119,1** ming so'mni (*19,5* %), san'at, ko'ngil ochish va dam olish sohasida – **7 147,3** ming so'mni (*19,4* %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida – **3 558,7** ming so'mni (*14,1* %) tashkil etdi.

Shu bilan birga, o'rtacha oylik nominal ish haqi sanoat sohasida – **6 910,5** ming so'mni (*o'tgan yilning mos davriga nisbatan 13,7* %), yashash va ovqatlanish sohasida – **2 155,7** ming so'mni (*11,7* %), bank, sug'urta, lizing, kredit va moliyaviy vositachilik faoliyati sohasida – **12 371,0** ming so'mni (*11,2* %), tashish va saqlash sohasida – **5 140,5** ming so'mni (*10,4* %), qurilish sohasida – **7 860,6** ming so'mni (*3,1* %) tashkil etib, o'sish kuzatilgan bo'lsada boshqa tarmoqlarga nisbatan o'sish sura'ti pastroq bo'ldi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

4. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha dinamikasi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdorining so'nggi besh yildagi o'zgarishi tahlil etilganida, 2025- yilning II choragida axborot va aloqa sohasida ish haqi miqdori **14 427,7** ming so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **11 868,1** ming so'mga oshganligi kuzatildi.


Shuningdek, so'nggi besh yilda bank, sug'urta, lizing, kredit va moliyaviy vositachilik faoliyati sohasi bo'yicha ish haqi miqdori **6 989,0** ming so'mga, qurilish sohasida **3 773,4** ming so'mga, tashish va saqlash sohasida **3 247,4** ming so'mga, savdo sohasida **3 220,1** ming so'mga, sanoat sohasida **2 887,9** ming so'mga ko'payganligi kuzatildi.

O'rtacha oylik ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'zgarish dinamikasi, ming so'm




Sanoat sohasida o'rtacha oylik ish haqi **6 910,5** ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdori elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida **8 955,9** ming so'm, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sohasida **7 197,9** ming so'm, ishlab chiqarish sanoati sohasida **6 804,0** ming so'm, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish sohasida **3 946,4** ming so'm ekanligi kuzatildi.

Sanoat sohasida ish haqi miqdorining o'zgarish dinamikasi,




Savdo sohasida o'rtacha oylik ish haqi **5 538,6** ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdori avtomobil va mototsikllarning savdosidan tashqari ulgurji savdo sohasida **6 184,8** ming so'mni avtomobil va mototsikllarning savdosidan tashqari chakana savdo sohasida **4 324,2** ming so'mni, avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash tarmog'ida **3 962,6** ming so'mni tashkil etgan.

Savdo sohasida ish haqi miqdorining o'zgarish dinamikasi, (ming so'm)




Tashish va saqlash sohasida o'rtacha oylik ish haqi **5 140,5** ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning ayrim sohalari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdori ombor xo'jaligi va yordamchi transport sohasida **6 507,9** ming so'mni, quruqlikdagi va quvur transporti sohasida **5 539,8** ming so'mni, pochta va kuryerlik faoliyati sohasida **2 997,6** ming so'mni tashkil etgan.

Tashish va saqlash sohasida ish haqi o'zgarishi dinamikasi,




Axborot va aloqa sohasida o'rtacha oylik ish haqi **14 427,7** ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning ayrim sohalari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar sohasida **33 505,9** ming so'm, axborot xizmatlari ko'rsatish sohasida **9 453,3** ming so'mni, aloqa sohasida **8 571,5** ming so'mni tashkil etgan.

Axborot va aloqa sohasida ish haqi o'zgarishi dinamikasi,
(ming so'm)




Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida o'rtacha oylik ish haqi **12 371,0** ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi majburiy ijtimoiy sug'urtalashdan tashqari, qayta sug'urtalash va nafaqa jamg'armalari sohasida **36 570,2** ming so'mni, sug'urtalash va nafaqa ta'minotidan tashqari moliyaviy xizmatlar sohasida **11 834,9** ming so'mni tashkil etgan.

Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida o'rtacha oylik ish haqi,
(ming so'm)



Ta'lim sohasining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi,
(ming so'm)

Ta'lim sohasida o'rtacha oylik ish haqi **4 119,1** ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi oliy ta'lim sohasida **10 398,3** ming so'mni, texnik va professional ta'lim sohasida **4 346,4** ming so'mni, umumiy o'rta ta'lim sohasida **4 244,8** ming so'mni, maktabgacha ta'lim sohasida esa **2 235,1** ming



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)



5. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar korxona va tashkilotlar tomonidan elektron shaklda, onlayn tarzda taqdim etilgan statistika hisobotlari ma'lumotlari asosida kichik korxonalar, mikrofirmalar va qishloq xo'jaligi korxonalarisiz shakllantirilgan.

Respublikaning barcha korxona va tashkilotlari, jumladan kichik korxonalar, mikrofirmalar, fermer xo'jaliklari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar yilda bir marotaba shakllantirilib, e'lon qilinadi.

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014- yil 7- apreldagi PF-4609-son farmoniga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlari va fermer xo'jaliklari statistika hisobotlarini statistika idoralariga yilda bir marotaba taqdim etishi belgilangan.

Nominal hisoblangan ish haqi – ma'lum bir davr (soat, oy, yil) mobaynida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat) evaziga ish beruvchilar tomonidan, amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxsga pul shaklida hisoblangan daromadlardan iborat.

Hisobot oyi uchun nominal hisoblangan ish haqi quyidagicha hisoblanadi:

$$W_n = \frac{F}{L}$$

bunda:

W_n – nominal hisoblangan ish haqi;

F – hisobot oyi uchun jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar;

L – hisobot oyi uchun xodimlarning o'rtacha soni;

Nominal hisoblangan o'rtacha oylik ish haqini hisoblash O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining 2025- yil 30- maydagi 8-son qarori bilan tasdiqlangan "Iqtisodiyotda ish haqi miqdorini baholash bo'yicha uslubiy nizom"ga muvofiq amalga oshiriladi.

Metama'lumot uchun havola:

[Iqtisodiyot bo'yicha ish haqi miqdorini baholash bo'yicha uslubiy nizom](#)

Tayyorlash uchun mas'ul: Demografiya, mehnat va gender statistikasi bo'limi	Ijrochi: V.Xoldarov 71 202-86-78	Manzil: Toshkent sh., Mirobod tumani Yangi qo'yliq ko'chasi, 2-uy
--	---	--